



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvaliyeva,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova,
X. Yuldasheva

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 24-aprelda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 13,2
Adadi: 100. Buyurtma: № 61.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY’ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti sho‘basi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo‘shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

M. Vishovatiy – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o‘qituvchisi (Indoneziya)

A. Xashimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta‘lim bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

S. Yusupov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma‘muriy va moliya huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

G. Yo‘ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo‘ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi dotsenti, yuridik fanlar doktori

R. Altıyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So‘fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho‘basi katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq, jamiyat va madaniyat sho‘basi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
Э. Шарипов,
К. Абдувалиева,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
24.04.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 13,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 61.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хашимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – проректор по международным связям и дополнительному образованию Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Юсупов – заведующий сектором административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – доцент сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Ш. Исмоилов – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Г. Юлдашева – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдошев – доцент сектора конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Р. Алтиев – и.о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

М. Курбанов – и.о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и.о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Р. Кучкаров – доцент сектора права, общества и культуры Ташкентского государственного юридического университета, кандидат филологических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvalieva,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova
Kh. Yuldasheva

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 24.04.2026.

Paper size: A4. Cond.p.f: 13,2.

Units: 100. Order: № 61.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovaty – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khashimhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Deputy Rector for International Relations and Further Education of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Yusupov – Head of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Associate Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Associate Professor of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Altiev – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufieva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

R. Kuchkarov – Associate Professor of the Department of Law, Society and Culture of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON O'G'LI

Davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o'рни va ahamiyati haqida ayrim mulohazalar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

17 SHAMSHETOV SHARAFDIN SARSENOVICH

Mikrokreditlashni turli huquqiy tizimlarda tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili

32 ABROROVA KAMOLA SAIDMUXTOROVNA

O'zbekistonda xalqaro tijorat va investitsiyaviy nizolarning kelajagi: mediatsiya va arbitraj sinergiyasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

42 MATVIYENKO IRINA ALEKSANDROVNA, NAIM ALLAHRAKHA

O'zbekistonda ayollarga nisbatan kiberta'qib: amaldagi qonunchilik va islohotlar istiqboli

55 JALILOV RAVSHANJON ABDUKAYUMOVICH, ABDULLAYEV AKMALJON YO'LCHIBOYEVICH

Inson a'zolari va to'qimalarini olish maqsadini jinoyatning og'irlashtiruvchi belgisi sifatida aks ettirish masalalari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

64 SUROPOV AZAMAT FURQAT O'G'LI

Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari

76 ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA

O'zbekiston Respublikasidagi raqamli muhitda ayollar huquqlarini himoya qilish xalqaro standartlari implementatsiyasi: xalqaro-huquqiy tahlil va milliy amaliyot

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

87 BEKBO'TAYEVA LOBAR SHOVIKAT QIZI

Muqobil vasiylik kontekstida bola huquqlarining mohiyati, tasnifi va funksiyalarining nazariy-huquqiy tahlili

101 SADULLAYEVA SHOXISTA DAVRON QIZI

Axborot kodeksi orqali raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlarini himoya qilish: huquqiy va institutsional mexanizmlar tahlili

110 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH

Buyuk saltanat va umumbashariyat taraqqiyotiga qo'shilgan bebaho tarixiy meros

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 МУХАММАДЖОНОВ АБРОРЖОН АКМАЛЖОН УГЛИ

Некоторые соображения о месте и значении прокуратуры в системе государственной власти

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 ШАМШЕТОВ ШАРАФАТДИН САРСЕНОВИЧ

Сравнительный анализ моделей правового регулирования микрокредитования в различных правовых системах

32 АБРОРОВА КАМОЛА САИДМУХТОРОВНА

Будущее международных коммерческих и инвестиционных споров в Узбекистане: синергия медиации и арбитража

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

42 МАТВИЕНКО ИРИНА АЛЕКСАНДРОВНА, НАИМ АЛЛАХРАКХА

Киберпреследование женщин в Узбекистане: действующее законодательство и перспективы реформирования

55 ЖАЛИЛОВ РАВШАНЖОН АБДУКАЮМОВИЧ, АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ

Вопросы отражения цели изъятия органов и тканей человека как отягчающего признака преступления

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

64 СУРОПОВ АЗАМАТ ФУРКАТ УГЛИ

Международно-правовые основы защиты прав мигрантов

76 АБДИЕВА КАМОЛА КОМИЛЖОНОВНА

Имплементация международных стандартов защиты прав женщин в цифровой среде в Республике Узбекистан: международно-правовой анализ и национальная практика

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

87 БЕКБУТАЕВА ЛОБАР ШОВКАТ КИЗИ

Теоретико-правовой анализ сущности, классификации и функций прав ребёнка в контексте альтернативной опеки

101 САДУЛЛАЕВА ШОХИСТА ДАВРОН КИЗИ

Защита прав человека в эпоху цифровых технологий посредством информационного кодекса: анализ правовых и институциональных механизмов

110 АЗИМОВ ХАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ

Великая держава и бесценное историческое наследие, внесённое в развитие всего человечества

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON UGLI**
Some considerations on the role and significance of the prosecutor's office in the system of state power

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **SHAMSHETOV SHARAFATDIN SARSENOVICH**
Comparative analysis of legal regulation models for microcredit in different legal systems
- 32 **ABROROVA KAMOLA SAIDMUKHTOROVNA**
The future of international commercial and investment disputes in Uzbekistan: the synergy of mediation and arbitration

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 42 **MATVIENKO IRINA ALEKSANDROVNA, NAEEM ALLAHRAKHA**
Cyberstalking of women in Uzbekistan: current legislation and prospects for reform
- 55 **JALILOV RAVSHANJON ABDUKAYUMOVICH, ABDULLAEV AKMALJON YULCHIBOEVICH**
Issues of reflection of the purpose of removing human organs and tissues as an aggravating element of the crime

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 64 **SUROPOV AZAMAT FURQAT UGLI**
International legal foundations for the protection of migrants' rights
- 76 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
Implementation of international legal standards for the protection of women's rights in the digital environment in the Republic of Uzbekistan: an international legal analysis and national practice

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 87 **BEKBUTAeva LOBAR SHOvkAT KIZI**
Theoretical and legal analysis of the essence, classification and functions of child's rights in the context of alternative care
- 101 **SADULLAEVA SHOKHISTA DAVRON KIZI**
Protection of human rights in the digital age through the information code: analysis of legal and institutional mechanisms

-
- 110 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
A great empire and an invaluable historical heritage added to universal human progress

Kelib tushgan / Получено / Received: 06.03.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.04.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.04.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.2./ODIF3938>

UDC: 347.457:340.5(045)(575.1)

MIKROKREDITLASHNI TURLI HUQUQIY TIZIMLARDA TARTIBGA SOLISH MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI

Shamshetov Sharafatdin Sarsenovich,

Qoraqalpoq davlat universiteti

Fuqarolik va biznes huquqi kafedrasida dotsenti,

mustaqil izlanuvchi, yuridik fanlar nomzodi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-3775-9939>

e-mail: sharafatdinshamshetov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mikrocreditlash sohasining turli huquqiy modellari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha doktrinal xulosalar ilgari suriladi. Tadqiqot markazida "mikrocreditlashni tartibga solish modeli" turadi. Mazkur model bozorga kirish (litsenziyalash, proporsional talablar), shartnoma standartlari, iste'molchilarni himoya qilish, kreditning to'liq qiymatni oshkor etish, narx cheklovlari hamda mas'uliyatli kreditlash va nazorat tizimining o'zaro bog'liq majmuasini ifodalaydi. Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy usul, yuridik-dogmatik tahlil va institutsional nazariya elementlarini birlashtirib, huquqiy rejimlarni subyektlar o'rtasida risklarni taqsimlovchi konstruksiyalar sifatida o'rganadi. Mikrocreditlashning tadbirkorlik va ijtimoiy (moliyaviy inklyuziya) funksiyalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda halollik va huquqni suiiste'mol qilmaslik kabi imperativ tamoyillarning o'рни tahlil qilinadi. O'zbekiston qonunchiligi uchun de lege ferenda (kelajakdagi qonunchilik nuqtayi nazaridan) takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, ular kreditning to'liq qiymatini oshkor etish standartlarini kuchaytirish, bog'langan xizmatlarni majburlashga qarshi qoidalar o'rnatish, proporsional mas'uliyatli kreditlashni joriy etish, yashirin to'lovlarni taqiqlash bilan uyg'unlashgan narx cheklovlarini belgilash, shartnoma shartlarini standartlashtirish hamda ma'lumotni oshkor etish qoidalari buzilishining xususiy-huquqiy oqibatlarini mustahkamlashdan iborat.

Kalit so'zlar: mikrocreditlash, mikromoliya tashkiloti, moliyaviy xizmat, axborotni oshkor etish, kreditning to'liq qiymati, foiz cheklovlari, mas'uliyatli kreditlash, to'lov qobiliyati, raqamlashtirish

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОДЕЛЕЙ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МИКРОКРЕДИТОВАНИЯ В РАЗЛИЧНЫХ ПРАВОВЫХ СИСТЕМАХ

Шамшетов Шарафатдин Сарсенович,

кандидат юридических наук, доцент кафедры

«Гражданское и бизнес-право»,

самостоятельный соискатель

Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В настоящей статье посредством сравнительно-правового анализа исследуются различные модели правового регулирования микрокредитования и

формулируются доктринальные выводы, направленные на совершенствование законодательства Республики Узбекистан. В центре исследования находится категория «модель регулирования микрокредитования», которая отражает взаимосвязанную совокупность таких элементов, как доступ на рынок (лицензирование, пропорциональные требования), стандарты договорных условий, защита потребителей, раскрытие полной стоимости кредита, ценовые ограничения, а также ответственное кредитование и система надзора. Методология исследования объединяет сравнительно-правовой метод, юридико-догматический анализ и элементы институциональной теории, что позволяет рассматривать правовые режимы как конструкции, распределяющие риски между субъектами. Особое внимание уделяется обеспечению баланса между предпринимательской и социальной (финансовая инклюзия) функциями микрокредитования, при этом анализируется значение императивных принципов добросовестности и недопустимости злоупотребления правом. Для законодательства Республики Узбекистан разработаны предложения *de lege ferenda* (с точки зрения будущего правового регулирования), включающие усиление стандартов раскрытия полной стоимости кредита, установление правил, направленных против навязывания связанных услуг, внедрение пропорционального ответственного кредитования, введение ценовых ограничений, согласованных с запретом скрытых платежей, стандартизацию договорных условий, а также укрепление частноправовых последствий нарушения требований к раскрытию информации.

Ключевые слова: микрокредитование, микрофинансовая организация, финансовая услуга, раскрытие информации, полная стоимость кредита, процентные ограничения, ответственное кредитование, платёжеспособность, цифровизация

COMPARATIVE ANALYSIS OF LEGAL REGULATION MODELS FOR MICROCREDIT IN DIFFERENT LEGAL SYSTEMS

Shamshetov Sharafatdin Sarsenovich,

Associate Professor of the Department of Civil and Business Law,
Karakalpak State University,
Independent Researcher, Candidate of Legal Sciences

Abstract. *This article provides a comparative legal analysis of various legal models in the field of microcrediting and puts forward doctrinal conclusions on improving the legislation of Uzbekistan. The “microcredit regulation model” is at the center of the study. This model represents an interconnected complex of market access (licensing, proportional requirements), contractual standards, consumer protection, full credit value disclosure, price restrictions, and a system of responsible lending and supervision. The research methodology combines elements of the comparative-legal method, legal-dogmatic analysis, and institutional theory, studying legal regimes as structures that distribute risks among subjects. The role of imperative principles such as integrity and non-abuse of rights in ensuring the balance between entrepreneurial and social (financial inclusion) functions of microcredit is analyzed. Proposals have been developed for the legislation of Uzbekistan *de lege ferenda* (from the perspective of future legislation), which include strengthening standards for disclosing the full value of a loan, establishing rules against the coercion of tied services, introducing proportional liability lending, establishing price restrictions combined with a ban on hidden payments, standardizing contract terms, and strengthening the private legal consequences of violating information disclosure rules.*

Keywords: *microcredit, microfinance institution, financial service, information disclosure, full cost of credit, interest restrictions, responsible lending, solvency, digitalization*

Kirish

Moliyaviy xizmatlarning jadal raqamlashtirilishi mikrokreditlashning tabiatini tubdan o'zgartirdi. Shartnoma masofadan turib tuziladigan bo'ldi, riskni baholash avtomatlashtirilgan skoringga tayanmoqda, kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi muloqot esa ilovalar va messenjerlarga ko'chdi. Bu siljishlar axborot asimmetriyasi muammosini kuchaytirdi. Bunda qarz oluvchi ko'pincha foiz stavkasi va muddatni ko'radi, biroq har doim ham kreditning to'liq qiymati tuzilmasini, kechiktirish (muddati o'tishi) oqibatlarini va qo'shimcha to'lovlarning huquqiy tabiatini anglab yetmaydi. Riskning ikkinchi yo'nalishi – ortiqcha qarzdorlik: jami qarz yuki daromadlarga nisbatan tezroq o'sib, muddatni uzaytirish (prolongatsiya), restrukturizatsiya va undirish xarajatlari sikliga olib keladi. Huquqiy o'lchovda har ikki hodisa ommaviy moliyaviy shartnomalarda iroda avtonomiyasi chegaralarini qayta baholashga hamda shartnoma tuzilishidan oldingi bosqichda halollik standartlarini aniqroq belgilashga undaydi.

Doktrinada ushbu muammoning o'rganib chiqilganlik darajasi bir xil emas. Ayrim tadqiqotlarda mikrokreditlash asosan iste'mol kreditlashining bir turi sifatida ko'riladi va axborotni oshkor etish hamda insofsiz shartlar prizmasi orqali tahlil qilinadi (Rafe & McKee, 2017; Howells, Ramsay, Wilhelmsson & Kraft, 2010). Boshqa ishlarda esa urg'u nazorat (*supervision*) vositalariga, moliyaviy xizmatlar yetkazib beruvchilarga nisbatan riskka yo'naltirilgan talablar, jumladan, nobank sektoriga qaratiladi (De Mesquita Gomes et al., 2022; Lim et al., 2011). Nihoyat, tartibga solishni risklarni taqsimlash mexanizmi sifatida talqin qiladigan institutsional yondashuv rivojlanmoqda. Bunda xususiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy vositalar yagona rag'batlar konstruksiyasini hosil qiladi (North, 1990). O'zbekiston uchun mazkur yondashuv, ayniqsa, samarali, chunki mikrokreditlash bir vaqtning o'zida tadbirkorlik xizmatlari bozori hamda moliyaviy bozorga

kirish uchun imkoniyat bo'lib, u ijtimoiy-inklyuziv yuklamani ham olib yuradi.

Tadqiqot obyekti – mikrokreditlash sohasida kreditorlar (shu jumladan, nobank kreditorlari), qarz oluvchilar va davlat o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar. Tadqiqot predmeti turli huquqiy tizimlarda mikrokreditlashni tartibga solish modellari va ularning doktrinal rekonstruksiyasi bo'lib, u bozorga kirish, shartnoma standartlari, kreditning to'liq qiymatini oshkor qilish, foiz stavkalarini cheklash, mas'uliyatli kreditlash (*responsible lending*), qarzni undirish, raqamlashtirish hamda nazorat mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning maqsadi – turli huquqiy tizimlarda mikrokreditlashni tartibga solish modellarining qiyosiy-huquqiy tipologiyasini ishlab chiqish hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan doktrinal xulosalar va takliflarni shakllantirish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: mikrokreditlashni tartibga solish modellarini tasniflash va tipologiyasini yaratish mezonlarini ishlab chiqish; asosiy huquqiy modellarning (YI, Buyuk Britaniya, AQSH) qiyosiy tahlilini o'tkazish va ularning normativ-huquqiy mantiqidagi tafovutlarni asoslab berish; milliy tartibga solish rejimini yaxlit konfiguratsiya (bozorga kirish, shartnoma shartlari, narx shakllanishi, shaffoflik, nazorat, undiruv va raqamli kanallar) sifatida tahlil qilish; mikrokreditlashga oid yondashuvning doktrinal muammolarini (huquqiy bo'shliqlar, kolliziyalar, axborot asimmetriyasi va ortiqcha qarzdorlik risklari) aniqlash; fuqarolik huquqi tamoyillari va moliyaviy ommaviylik (*financial inclusion*) vazifalariga muvofiq keladigan istiqbolli qonunchilik takliflarini (*de lege ferenda*) ishlab chiqish.

Kirish qismining oraliq xulosasi shundan iboratki, tartibga solish tizimining "qat'iy" yoki "liberal" bo'lishi haqidagi bahslarni sof (abstrakt) shaklda olib borish kutilgan

samarani bermaydi. Buning o'rniga huquqiy modelni o'zaro uzviy bog'langan qarorlar tizimi sifatida rekonstruksiya qilish talab etiladi: muayyan bir elementni (masalan, axborotni oshkor etish talablarini) kuchaytirish, boshqa bir elementni (masalan, yashirin komissiyalarni taqiqlash va ularning xususiy-huquqiy oqibatlarini belgilash) muvofiqlashtirmasdan turib, shartnomadagi zaif tomonning holatini yaxshilashga xizmat qilmasligi mumkin.

Asosiy qism

“Mikrokreditlashni huquqiy tartibga solish modeli” konstruksiyasini shunchaki normalar va institutlar sifatida talqin qilmaslik lozim. U huquqlar, majburiyatlar va risklarni taqsimlashning ichki mantiqini hamda belgilangan standartlarga rioya etilishini ta'minlash (majbur etish) mexanizmlarini ifodalaydi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimi rivojlangan davlatlarda mikrokreditlash iste'mol kreditlashining umumiy qoidalari asosida tartibga solinishi mumkin. Boshqa huquqiy tizimlarda esa u maxsus qonun hujjatlari yoki subnormativ (qonunosti) standartlar bilan tartibga solinadi. Biroq mazmunan bir xil bo'lgan huquqiy vositalar (masalan, kreditning to'liq qiymatini oshkor etish majburiyati) amaliyotda turlicha ishlashi mumkin. Ayrim tizimlarda qonun buzilishi xususiy-huquqiy oqibatlarga (kreditni qayta hisoblash, shartnoma shartlarining haqiqiy emasligi, kompensatsiya to'lash) olib kelsa, boshqalarida qarz oluvchining ko'rgan zararini qoplamaydigan ma'muriy (ommaviy) jarimalar bilan cheklanadi (Howells et al., 2010; North, 1990). Demak, model nafaqat huquqiy ko'rsatmalar mazmunini, balki ularning institutsional bog'liqligini ham belgilaydi: nazorat subyekti, qonun buzilishini isbotlash tartibi va huquqiy oqibatlarning muqarrarligi shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy metod, yuridik-dogmatik tahlil va institutsional nazariya elementlarini o'z ichiga oladi. Qiyosiy tahlil regulyativ ratsionallikning

barqaror modellarini aniqlashga, shartnomaviy majburiyatlar buzilishining huquqiy oqibatlarini aniqlashtirishga hamda huquqiy normalar risklarni qay darajada taqsimlashni va ishtirokchilarning xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishini asoslab berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi mikrokreditlashni “tartibga solish matritsasi”ni analitik vosita sifatida taklif etishda va mikrokreditlashning dual (ikkiyoqlama) tabiatini doktrinal jihatdan asoslashda namoyon bo'ladi. Aynan shu dual tabiat shartnoma erkinligi hamda ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan imperativ kafolatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zaruratini belgilaydi.

Mikrokreditlashni huquqiy tartibga solish modeli deganda bozorga kirish shartlari va ruxsat etilgan yetkazib beruvchilar doirasini belgilovchi, shartnoma doirasini (muhim shartlar, standart bandlar, axborot majburiyatlari) konstruksiya qiluvchi, zaif tomonning imperativ kafolatlari va iroda avtonomiyasi chegaralarini belgilovchi, kredit narxi va to'lovlar tuzilmasini tartibga soluvchi, to'lov qobiliyatini baholash va ortiqcha qarzdorlikning oldini olish standartlarini mustahkamlovchi, undirish va kommunikatsiya usullarini cheklovchi, nazorat va sanksiyalarni o'rnatuvchi hamda raqamli kanallar spetsifikasini hisobga oluvchi o'zaro bog'langan normativ qarorlar majmuasi tushuniladi.

Shuningdek, “mikrokredit”, “mikroqarz” va “iste'mol krediti” tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Garchi ushbu toifalar o'zaro kesishsa-da, ular huquqiy tabiatiga ko'ra aynan bir xil emas. Tasniflash mezonlari sifatida, odatda, kredit summasi, muddati, maqsadi, kreditor subyekti, taqdim etish kanali va risk-profil belgilanadi (Rafe & McKee, 2017).

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, mikroqarz – jismoniy shaxsga haqlilik, muddatlilik va qaytarishlilik shartlarida 100 mln so'mdan oshmaydigan pul mablag'lari. Mikrokredit esa qarz oluvchi sifatida tadbirkorlik subyekti yoki o'zini o'zi band qilgan shaxsga xuddi shu

shartlar asosida 300 mln soʻmdan oshmaydigan miqdorda taqdim etiladigan mablagʻ boʻlib, unda maqsadli foydalanish talabi qoʻyilishi mumkin (Republic of Uzbekistan, 2022). Isteʼmol krediti esa alohida huquqiy toifa sifatida jismoniy shaxsga (isteʼmolchiga) tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni isteʼmol ehtiyojlari uchun sotib olish maqsadida beriladigan kredit sifatida tavsiflanadi (Republic of Uzbekistan, 1996).

Shu sababli amaliyotda jismoniy shaxsga isteʼmol ehtiyojlari uchun berilgan mikroqarz funksional jihatdan isteʼmol krediti rejimiga yaqinlashadi, bu esa isteʼmolchilarni himoya qilishga oid maxsus talablarni qoʻllash masalasini dolzarblashtiradi. Doktrinal jihatdan universal chegaralarni belgilashdan koʻra, mikro-segmentning narx va axborot asimmetriyasiga (buzilishlariga) oʻta sezgirligini tan olish muhimroqdir. Qisqa muddatli kichik summali kreditlarda komissiya va jarima elementlari umumiy qarz miqdoriga nisbatan nomutanosib darajada yuqori ahamiyat kasb etadi.

Tartibga solish modellarini ortiqcha nazariylashtirish tahlilni amaldagi huquqdan uzib qoʻyadi, degan eʼtirozlar tugʻilishi mumkin, zero sud va regulyator uchun aniq normalar zarur. Biroq modelni tizimli rekonstruksiya qilmasdan turib, nuqtaviy islohotlarning kutilayotgan oqibatlarini baholash qiyin. Masalan, yashirin toʻlovlarni taqiqlamasdan narx “shiftini” (yuqori chegarasini) joriy etish, kredit qiymatining shartnomaning boshqa elementlariga koʻchirilishiga olib keladi. Aksincha, axborotni oshkor etish talablarini kuchaytirib, unga mutanosib xususiy-huquqiy sanksiyalar kiritilmasa hamda jarimalar miqdori kam va bashorat qilinadigan darajada qolsa, kreditorning iqtisodiy ragʻbatlari oʻzgarasligi mumkin (North, 1990). Shu bois modellik tahlili huquqiy dogmatikani almashtirish emas, balki uni tartibga solish va bir xil normalar turli huquqiy tizimlarda nega turlicha natija berishini tushuntirish usulidir.

Mikrokreditlash instituti shartnoma erkinligi hamda shartnomadagi zaif tomonni

himoya qilish oʻrtasidagi doktrinal ziddiyatni yaqqol aks ettiradi. Ushbu ziddiyatni hal etish uchta tayanch tamoyilga asoslanishni talab qiladi: halollik (shartnoma tuzilishidan oldingi va shartnoma bosqichlaridagi xulq-atvor standarti sifatida), oshkorlik (ongli rozilikni taʼminlash sharti sifatida) va oʻzaro qarshi taqdimlarning ekvivalentligi (haddan tashqari nomutanosiblikni cheklovchi mezon sifatida). Shuningdek, mazkur munosabatlarda huquqni suiisteʼmol qilishni taqiqlash prinsipi universal xarakterga egadir (Howells et al., 2010; Zimmermann, 1996).

Mikrokreditlash modellarining qiyosiy tahlili risklar taqsimoti arxitekturasini ifodalovchi funksional tugunlar (elementlar) kesimida amalga oshirilishi lozim. Aynan ushbu tugunlar, garchi formal huquq manbalari turlicha boʻlsa-da, turli huquqiy tizimlarni oʻzaro qiyoslash va ularning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Mikrokreditlashda risklar koʻp qatlamliligi xarakterga ega: bularga kredit riski (toʻlamaslik), axborot riski (shartnoma qiymatlari va real qiymatni aniqlamaslik), xulq-atvor riski (tajovuzkor marketing va majburiy undiruv), texnologik risk (skoring xatolari, shaxsiy maʼlumotlar xavfsizligi) hamda ijtimoiy risk (aholining zaif qatlamlari oʻrtasida ortiqcha qarzdorlikning yuzaga kelishi) kiradi.

Huquqiy tizim ushbu risklarga muayyan tartibga solish tugunlari orqali javob beradi. Bunda bir tugunning kuchaytirishi koʻpincha yuklamaning boshqa bir elementga qayta taqsimlanishiga olib keladi. Masalan, shartnoma shartlarini qatʼiy standartlashtirish tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirib, mahsulotlarning oʻzaro qiyoslanish darajasini oshiradi, biroq bu jarayon raqamli savdo maydonchalarida standartlarga rioya etilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirishni talab etadi.

Taklif etilayotgan mezonlar matritsasi sakkizta asosiy tugunni oʻz ichiga oladi.

Birinchiidan, bozorga kirish tartibi: bu litsenziyalash yoki ro'yxatdan o'tkazish, ustav kapitali va boshqaruv organlariga qo'yiladigan talablar, ayrim faoliyat turlarini taqiqlash hamda bank va nobank sektorlarini huquqiy jihatdan differensiallashni nazarda tutadi (De Mesquita Gomes et al., 2022). Mazkur bosqichda insofsiz yoki moliyaviy barqaror bo'lmagan kreditorlar bilan bog'liq risklar minimallashtiriladi. Bozorda kirish to'siqlari qanchalik past bo'lsa, xulq-atvor nazorati va xususiy-huquqiy himoya vositalarining ahamiyati shunchalik ortib boradi.

Ikkinchiidan, shartnoma konstruksiyasi va shartlarning standartlashtirilishi: buni amalga oshirish majburiy ma'lumotlar tarkibini belgilash, shartnoma shakliga (shu jumladan, masofaviy/elektron shaklga) qo'yiladigan talablar, namunaviy (tipik) shartlarning maqbulligi, matnning aniqligi hamda adolatsiz bandlarni taqiqlashni o'z ichiga oladi (Howells et al., 2010).

Uchinchiidan, axborotni oshkor etish va kreditning to'liq qiymati. Axborotni oshkor etish majburiyati shunchaki formal xabardor qilish emas, balki qarz oluvchining ongli roziligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Qarz oluvchi barcha komissiyalar, uchinchi shaxslar foydasiga to'lovlar, majburiyatni kechiktirish oqibatlarini va muddatidan oldin qaytarish shartlarini o'z ichiga olgan holda, kreditning jami xarajatlarini aniq tasavvur qilishi shart (European Parliament and Council of the European Union, 2023; Financial Conduct Authority, 2014).

To'rtinchiidan, narxni cheklash: yillik foiz stavkasi yoki kreditning umumiy qiymati bo'yicha yuqori chegaralarni o'rnatish, yashirin komissiyalarni taqiqlash hamda neustoyka (jarima va penya) miqdorini cheklovchi qoidalarni nazarda tutadi. Bu narx shakllanishiga bevosita aralashuv tuguni bo'lib, daromad va riskning kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida taqsimlanishini o'zgartiradi, shuningdek, kredit mahsulotlarining ommabopligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin (Consumer

Financial Protection Bureau, 2021; Lefevre & Chapman, 2017).

Beshinchiidan, mas'uliyatli kreditlash va to'lov qobiliyatini baholash (affordability). Bu tugun kreditor zimmasiga qarz oluvchi uchun oldindan ma'lum bo'lgan "o'ta og'ir" kredit yuklamasini yuzaga keltirmaslik majburiyatini yuklaydi. Bunda mazkur majburiyatning qarz oluvchi iroda avtonomiyasi bilan huquqiy nisbati hamda mas'uliyatli kreditlash tamoyillarining buzilishi oqibatlarini belgilanadi (Consumer Financial Protection Bureau, 2021).

Oltinchiidan, qarzni undirish va kreditor xulq-atvorining chegaralari: bu undiruv jarayonida ruhiy va jismoniy bosim o'tkazishni taqiqlash, kommunikatsiya standartlari, qarzni restrukturizatsiya qilish talablari hamda nizolarni sud va suddan tashqari tartibda hal etish mexanizmlarini o'z ichiga oladi (Truth in Lending Act of 1968, 15 U.S.C. § 1601 et seq, 1968; Federal Trade Commission, 2010).

Yettinchiidan, raqamlashtirish va texnologik transformatsiya: masofaviy identifikatsiya qilish, skoring tizimlarida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, qarorlarning izohlanishi talablari, anti-diskriminatsion risklar va ma'lumotlarni minimallashtirish taomillarini qamrab oladi (OECD, 2019; Council of Europe, 1981). Ushbu tugunda huquqiy risklar texnologik tekislikka ko'chadi, klassik shartnoma huquqi kategoriyalari esa raqamli jarayonlar tiliga doktrinal "tarjima" qilinishini talab etadi.

Sakkizinchiidan, nazorat tizimi va sanksiyalar: bu regulyatorning vakolatlari, qonun buzilishiga nisbatan ko'riladigan javob choralari, xususiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy himoya vositalarining mutanosibliigi, shikoyat qilish mexanizmlari hamda nizolarni muqobil hal etish tizimlarini qamrab oladi (De Mesquita Gomes et al., 2022; World Bank, 2019).

Taklif etilayotgan mezonlar o'zaro bir-birini takrorlaydi yoki ortiqcha tafsilotlarga ega, degan tanqidiy mulohazalar bildirilishi mumkin. Darhaqiqat, axborotni oshkor etish

majburiyati shartnomalarni standartlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq, mas'uliyatli kreditlash tamoyili esa bevosita nazorat mexanizmlariga tayanadi. Biroq tartibga solishni bunday alohida "tugunlar" kesimida o'rganish tizimli doktrinal tahlil uchun nihoyatda zarurdir. Mazkur yondashuv huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlarni (muayyan tugunning o'zaro bog'liqlikdan uzilib qolganligini) aniqlash va kompensatsiya mexanizmlarini (bir tugun zaifligining boshqa element kuchi bilan muvozanatlashtirilishini) tahlil qilish imkonini beradi.

Mezonlar matritsasi manbalar formal sistematikasini emas, risklarning taqsimlanishini aks ettiradi. Shuning uchun modellarni qiyoslash quyidagi savol atrofida olib borilishi kerak: huquq qaysi risklarni va qaysi darajada kreditor zimmasiga yuklaydi, qaysilarini qarz oluvchida qoldiradi va qaysilarini davlat nazorat va standartlashtirish orqali o'z zimmasiga oladi.

Regulyativ ratsionallik darajasida mikro-kreditlash modellarining kamida to'rtta ideal turi ajratilishi mumkin: iste'molchini himoya qiluvchi (imperativ-standart), nazorat-prudensial (riskka yo'naltirilgan), bozor-raqobat (axborotni oshkor etish ustuvor) va ijtimoiy-inklyuziv (kuchaytirilgan kafolatlar bilan qulaylikka yo'naltirilgan gibrid).

Birinchi tur ommaviy kreditlar bozori imperativ ramkalarsiz adolatli natijani ta'minlamaydi, degan fikrga tayangan. Shu sababli davlat asosiy shartlarni standartlashtiradi va huquqbuzarlik uchun kuchli oqibatlar yaratadi. Ikkinchi turda asosiy risk yetkazib beruvchining sifati va barqarorligi deb qaraladi, shuning uchun kirish talablari, boshqaruv va nazorat kuchaytiriladi. Uchinchi tur xabardor iste'molchiga va raqobatga tayanadi. Axborotni oshkor etish markaziy vosita hisoblanadi, narx cheklovlari esa qisman joriy etiladi. To'rtinchi tur mikro-kreditlashning ijtimoiy funksiyasini tan oladi va maxsus rejimlarni (jumladan, subsidiyalar, kafolatlar, maxsus mahsulotlar) nazarda

tutadi, shu bilan birga, qulaylik va himoya o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

Ushbu turlar muqarrar ravishda abstrakt bo'lib, amaliyotda aralashadi. Biroq aynan ideal turlar tartibga solish markazining qayerga siljishini ko'rsatadi va natijalardagi farqlarni tushuntirishga yordam beradi (masalan, nega axborotni oshkor etish majburiyati bir huquqiy tartibda suiiste'molliklarni kamaytirsam, boshqasida formal talabga aylanib qoladi) (North, 1990). Shu bois qiyosiy tahlil dominant tur va turlar aralashuvini qayd etishi lozim, aktlarni mexanik sanab o'tish bilan cheklanmasligi kerak.

Yevropa modeli iste'mol kreditlash standartlarini direktiva asosida unifikatsiya qilishga tayanadi. Unda axborotni oshkor etish va to'lov qobiliyatini baholash bog'liq tizimni hosil qiladi, haddan tashqari qiymatni cheklash esa himoyaning ruxsat etilgan vositasi sifatida ko'riladi. Shuningdek, iste'mol kreditlashda butunlay yangi subyektlar – kredit vositachilari ham muhim rol o'ynaydi (Mijatovic & Gongeta, 2014).

Uzoq vaqt davomida klassik yadroni iste'mol krediti bo'yicha 2008/48/EC Direktivasi tashkil etgan (European Parliament and Council of the European Union, 2008). U axborot, yillik foiz stavkasi va qarz oluvchi huquqlarining umumiy standartlarini belgilagan. Yangi (EU) 2023/2225 Direktivasi yondashuvni rivojlantiradi, ya'ni reklama, shartnoma tuzilishidan oldingi axborot va mas'uliyatli kreditlash amaliyotlariga talablarni kuchaytiradi, shuningdek, a'zo davlatlar suiiste'molliklarning oldini olishi va iste'molchilar haddan tashqari yuqori xarajatlarni ko'tarib qolmasligini ta'minlashi shartligini bevosita belgilaydi (European Parliament and Council of the European Union, 2023). Direktivada hamma uchun yagona raqamli limit majburan joriy etilmaydi, biroq milliy qonunchilar vositalarini tanlaydigan huquqiy mandat va ramka beriladi.

Yevropa mantiqida zaif tomonni himoya qilish mexanizmi ikki yoqlama. Bir tomondan,

bu standartlashtirilgan axborot va shartlarning qiyoslanishi (raqobat ishlashi uchun) bo'lsa, ikkinchi tomondan, faqat axborotning o'zi yetarli emasligi tan olinadi. Kreditor to'lov qobiliyatini hisobga olishi, davlat esa haddan tashqari qiymat yoki navbatdagi (tied) xizmatlarga olib keladigan amaliyotlarni to'xtatishi shart. Nazorat jihati kreditorlar va vositachilarni (jumladan, nobank ishtirokchilarni) bozorga kiritish va nazorat qilish talablarida namoyon bo'ladi (European Parliament and Council of the European Union, 2023).

Mikrokreditlashda bog'langan xizmatni (tied service) majburlashni oddiy marketing usuli sifatida emas, balki qarz oluvchining muzokara va axborot zaifligidan foydalanish orqali narxni yashirin shakllantirish usuli sifatida tasniflash lozim. Fuqarolik-huquqiy nuqtayi nazardan, bu yerda gap kreditor foiz stavkasini maqbul darajada rasman saqlab qolgan holda, mukofotning bir qismini majburiy qo'shimcha to'lovlarga (sug'urta, pullik konsalting, "skoring-paket", "tezashtirilgan to'lov") o'tkazadigan vaziyat haqida bormoqda. Ularsiz kredit olish amalda mumkin emas. Bu huquqni suiiste'mol qilishni anglatadi, chunki kreditor qarz oluvchining standartlashtirilgan shartlarga bog'liqligidan va muqobil variantlarning yetishmasligidan foyda ko'radi.

Yevropa yondashuvi ba'zan normativ murakkablik va qog'ozdagi rioya etilish riski uchun tanqid qilinadi. Formal shakllarni to'ldirish iste'molchining real tushunishini anglatmasligi mumkin. Bundan tashqari, komplayensga urg'u berish yetkazib beruvchilar xarajatlarini oshirib, mikro-segmentda taklifni toraytirishi mumkin. Biroq bu e'tirozlar modelni inkor etmaydi. Ular huquqni qo'llashni kuchaytirish va axborotni oshkor etishni huquqbuzarliklarning xususiy-huquqiy oqibatlarini bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Shu tariqa, YI iste'molchini himoya qiluvchi turini nazorat-prudensial elementlar bilan namoyon etadi. Asosiy ma'no – xabar-

dor rozilikni real, formal qilish emas, balki uni mas'uliyatli kreditlash hamda ehtimoliy qiymat cheklovlari bilan qo'llab-quvvatlash.

Britaniya modeli yuqori xarajatli qisqa muddatli kreditlar segmentida xulq-atvor nazoratini namoyon etadi: unda to'lov qobiliyatini baholash va qiymat cheklovlari bozor xulqini o'zgartirish vositalari sifatida ishlatiladi.

Britaniya tizimida regulyativ markaz – moliyaviy regulyatorning xulq-atvor nazorati va bozorda halol xulq standartlari. Yuqori xarajatli qisqa muddatli kredit bo'yicha qiymat cheklovchisini joriy etish haddan tashqari hisoblashlar va prolongatsiya sikllari riskiga javob bo'ldi. Regulyatorning bevosita ta'kidlashicha, yuqori chegara qarz oluvchi "hech qachon olingan qarz summasining ikki baravaridan ko'p miqdorini qaytarmasligi kerak" degan ma'noni anglatadi (Financial Conduct Authority, 2014). Institutsional nazariya nuqtayi nazaridan bu shunchaki narxni cheklash emas, balki rag'batlar tuzilmasini o'zgartirishdir. Kreditor jarimalar va refinanslash mexanizmlari orqali qarzni cho'zishga qiziqishni yo'qotadi, demak, kechikish riski qayta taqsimlanadi.

Agar qiymat cheklovi maksimal zararini cheklasa, to'lov qobiliyatini baholash "ko'tarib bo'lmaydigan" majburiyatga kirib qolish ehtimolini pasaytirishi kerak. Nazorat uslubi ham muhim: amaliyot monitoringi, reklama standartlari va huquq buzilishi bo'lsa, aralashuv vositalariga urg'u beriladi (Financial Conduct Authority, 2014; World Bank, 2019). Eng ko'p uchraydigan kontr-e'tiroz shuki, yuqori chegaralar ayrim iste'molchilarni noqonuniy yoki "kulrang" segmentga chiqarib yuborishi yoki mikro-kredit qulayligini pasaytirishi mumkin. Bu riskni inkor etib bo'lmaydi. Biroq cheklovning o'zidan voz kechish uchun asos emas. U yashirin to'lovlarni taqiqlash, chetlab o'tish konstruksiyalari ustidan nazorat va muqobil mahsulotlarni (jumladan, ijtimoiy va bank) rivojlantirish kabi tuzatishlarni talab qila-

di. Aks holda xarajatlar boshqa shakllarga ko'chadi.

Umuman, Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, qiymat cheklovchisi faqat xulq-atvor nazorati va to'lov qobiliyatini baholash talablari bilan birgalikda samarali bo'lishi mumkin. Amaliyot nazoratisiz o'rnatilgan yagona cheklov (shift), kutilgan natijalar o'rniga qiymatning boshqa elementlar hisobiga "ko'chishi"ga olib kelishi mumkin.

Amerika modeli federal darajada axborotni oshkor etishning yuqori roli va shtatlar darajasida qiymat cheklovlarining sezilarli nomutanosibliigi bilan tavsiflanadi, bu esa riskning "mozaykali" arxitekturasini shakllantiradi.

AQSHda iste'mol kreditini federal tartibga solish tarixan standartlashtirilgan axborotni oshkor etish, jumladan, yillik foiz stavkasini oshkor etishga tayanadi. Bu raqobat va iste'molchining ongli tanlovini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (Truth in Lending Act of 1968, 15 U.S.C. § 1601 et seq, 1968). Bu model shu darajada bozor-raqobat turiga yaqin bo'lib, shaffoflik adolatli shartlarning kaliti deb qaraladi. Biroq qisqa muddatli yuqori xarajatli mahsulotlar segmentida shtatlar cheklovlari, jumladan, maksimal foizlar va ayrim mahsulotlar uchun maxsus rejimlar muhim rol o'ynaydi (Consumer Financial Protection Bureau, 2021). Natijada bozor yagona ramka bilan emas, federal shaffoflik va mahalliy taqiq (cheklov)larning uyg'unligi bilan tashkil topadi.

Zaif tomonni himoya qilish nuqtayi nazaridan model ziddiyatli hisoblanadi. Kuchli tomoni – axborotni oshkor etishning rivojlangan standartlashuvi. Zaif tomoni esa qarz oluvchi ehtiyoj va muqobil imkoniyatlar cheklangan sharoitda qolgan bo'lsa, axborotni oshkor etish o'zi xulq-atvor amaliyotlarini to'xtata olmaydi. Shu bois ayrim yurisdiksiyalarda aynan mahsulot cheklovlari (stavkalar, komissiyalar, pul o'tkazish) hamda undirish va insofsiz amaliyotlardan himoya qoidalari kuchaytiriladi (Consumer Financial Protecti-

on Bureau, 2021; Federal Trade Commission, 2010).

"Mozaykali" bashorat qilinuvchanlik muammosini tug'diradi va yuklamaning bir qismini huquqni qo'llashga ko'chiradi. Iste'molchiga rejimlar farqini tushunish qiyin, yetkazib beruvchilar esa shtatlar xaritasiga qarab modellashadi. Institutsional ma'noda risk nafaqat shartnoma tarablari, balki tartibga solish darajalari o'rtasida ham qayta taqsimlanadi. Shu bilan birga, AQSH tajribasi axborotni oshkor etish paradigma-sining chegaralarini ko'rsatishi bilan muhim. Bunda shaffoflik zarur, biroq mahsulot strukturaning o'zi qarz spiralini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarda yetarli emas.

Demak, AQSH modeli qiymat cheklovlarining fragmentatsiyasi bilan tavsiflanuvchi murakkab bozor-raqobat modelini namoyon etadi. Mikro kreditlash rejimini loyihalashtirayotgan davlatlar uchun ushbu tajriba o'ziga xos ogohlantirish vazifasini o'taydi: agressiv mahsulot konstruksiyalari mavjud bo'lgan sharoitda faqatgina axborotni oshkor etish standartlarining o'zi kutilgan samarani bo'lmasligi mumkin.

O'zbekistonning milliy (ichki) tartibga solish tizimini rivojlanib borayotgan "aralash model" sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq. Unda nobank sektorini bozorga kiritish va nazorat qilish mexanizmlari umumiy fuqarolik-huquqiy shartnoma konstruksiyalari bilan uyg'unlashgan. Biroq axborotni oshkor etish tugunlari, mas'uliyatli kreditlash tamoyillari hamda huquq buzilishlarining xususiy-huquqiy oqibatlarini belgilovchi qoidalar tizimli ravishda kuchaytirilishga muhtoj.

O'zbekistonda institutsional tizimning muhim elementi – bu nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya faoliyatining qonunchilik darajasida mustahkamlanishidir. Bu tizim o'z ichiga subyektlarni tashkil etish tartibi, ruxsat etilgan va taqiqlangan operatsiyalar ro'yxati, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda nazorat asoslarini qamrab oladi (Republic of Uzbekistan, 2022). Bu bo-

zorga kirish asoslarini belgilaydi va nobank segment barqarorligida ommaviy manfaat mavjudligini tan oladi. Shartnoma qatlami odatda fuqarolik huquqining majburiyatlar va shartnomaga oid umumiy normalariga tayanadi. Bu xususiy-huquqiy oqibatlarining bashorat qilinuvchanligini ta'minlaydi, biroq ommaviy moliyaviy shartnomalar uchun maxsus kafolatlarni ham talab qiladi.

Taklif etilgan matritsa nuqtayi nazaridan bir nechta doktrinal muammolar ajralib chiqadi.

Birinchisi – axborot asimmetriyasi va qarz oluvchining muzokara pozitsiyasi zaifligi. Mikroreditlash bo'yicha ommaviy shartnomalarda shartlar amalda kreditor tomonidan belgilanadi. Qarz oluvchi ko'pincha shartnoma shartlarini masofadan turib, qo'shilish shartnomasi shaklida qabul qiladi. Bunday vaziyatda halollik abstrakt axloq emas, aniq majburiyatlarda namoyon bo'ladi (to'liq qiymatni oshkor qilish, kechikish oqibatlari tushuntirish, mahsulotning arzonligi haqida yolg'on taassurot yaratmaslik). Agar bu majburiyatlar huquqiy oqibatlar bilan ta'minlanmasa, halollik tamoyili regulyativ kuchini yo'qotadi (Howells et al., 2010; Zimmermann, 1996).

Ikkinchisi – yashirin narx riski. Foiz stavkasi formal ko'rsatilgan bo'lsa ham, jami qiymat komissiyalar, pullik servislari, sug'urta yoki boshqa bog'liq shartnomalar hisobiga oshishi mumkin. Bu yerda doktrinal muammo shuki, kredit narxi bir necha oqimga bo'linadi va qarz oluvchi majburiy to'lovni fakultativ to'lovdan doim ham ajrata olmaydi. Demak, nafaqat ayrim to'lovlarni taqiqlash, balki xizmatlar bog'liqligini huquqiy kvalifikatsiya qilish va majburan ko'rsatilgan xizmat oqibatlari qoidalari zarur (Rafe & McKee, 2017; North, 1990).

Uchinchisi – shartnoma tuzilishidan oldingi bosqichda halollik standartlarining noaniqligi. Raqamli kanallarda shartnomadan oldingi kelishuvlar juda kam, qarorlar esa tez qabul qilinadi. Bu noto'g'ri yoki to'liq

bo'lmagan axborot uchun shartnomadan oldin bo'ladigan javobgarlik ahamiyatini oshiradi. Agar huquqni qo'llash faqat ommaviy jarimalar bilan cheklanib, qarz oluvchi uchun restitutsiya (qayta hisoblash)ni ta'minlamasa, rag'batlantiruvchi ta'sir zaiflashadi.

To'rtinchisi – himoya vositalaridagi nomutanosiblik. Ommaviy nazorat muhim, biroq u har doim ham qarz oluvchiga buzilgan huquqning iqtisodiy ekvivalentini qaytarib bermaydi. Xususiy-huquqiy vositalar (insofsiz shartlarning haqiqiy emasligi, qayta hisoblash, zararlarni qoplash, asossiz boyish) kompensatorlik va profilaktik funksiyalarni bajarishi mumkin, agar ular mavjud bo'lsa va protsessual jihatdan ishlasa (Howells et al., 2010).

Beshinchisi – mas'uliyatli kreditlashning yetarlicha aniq ifodalanmaganligi. Mikrosegmentda to'lov qobiliyatini baholash proporsional bo'lishi kerak (haddan tashqari talablar xarajatlarni oshirib, qulaylikni kamaytiradi, talablarning yo'qligi esa ortiqcha qarzdorlik riskini kuchaytiradi). Shuning uchun doktrinal jihatdan pog'onali model oqlanadi: summa va muddat qanchalik katta bo'lsa, baholash talablari shunchalik qat'iy.

Oltinchisi – raqamli skoring va shaxsiy ma'lumotlar. Avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish jarayoni shaffof bo'lmasligi, ma'lumotlardan foydalanish ko'lami esa ortiqcha darajada kengayib ketishi mumkin. Bu o'z navbatida adolat va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik masalasini kun tartibiga chiqaradi. Agar qabul qilingan qarorga izoh berilmasa, qarz oluvchi uni asosli ravishda shubha ostiga olish va himoyalani huquqidan mahrum bo'ladi. Natijada, xususiy avtonomiya va ijtimoiy tartib o'rtasidagi muvozanat buziladi (OECD, 2019; Council of Europe, 1981).

Milliy modelning kuchli tomoni – nobank sektorining institutsionallashuvi va nazorat zarurligini tan olish (Republic of Uzbekistan, 2022). Bunda zaiflik axborotni oshkor etish tugunlarida, mas'uliyatli kreditlashda va ommaviy sanksiyalarni xususiy-huquqiy

oqibatlar bilan bog'lashda namoyon bo'ladi. Takomillashtirish ortiqcha tartibga solish yo'nalishida emas, balki risklarni aniq qayta taqsimlash yo'nalishida bo'lishi kerak, ya'ni insofsiz amaliyotlar riskining bir qismi kreditor zimmasiga majburiyatlar va oqibatlar orqali o'tkazilishi, bir qismi esa samarali nazorat orqali davlat zimmasiga yuklanishi lozim.

O'zbekistonda mikroreditlashni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish – fuqarolik huquqi tamoyillari va moliyaviy inklyuzivlik maqsadlariga tayanuvchi, o'zaro muvofiq- lashtirilgan chora-tadbirlar majmuasini talab etadi. Yaxlit modelga asoslanmagan, tarqoq (izolyatsiyalangan) islohotlar kutilgan samarani bermaydi.

Quyida yuqoridagi muammolarni hal etish bo'yicha mualliflik takliflari keltirilgan:

1. Raqamli mikroreditlashda foiz stavkasi ko'p hollarda majburiyatning haqiqiy qiymatini aks ettirmaydi. Buning sababi shundaki, kreditor daromadining bir qismi turli komissiyalar, pullik servislar, uchinchi shaxslar foydasiga to'lovlar, jarimaviy elementlari, majburiy obunalar ko'rinishida yashiriladi. Natijada qarz oluvchi o'z zimmasiga olayotgan majburiyatning iqtisodiy oqibatlarini to'liq amiqlamasligi oqibatida uning roziligi haqiqiy hisoblanmaydi. Mazkur muammoni hal etish uchun barcha majburiy to'lovlar va to'lov muddatini o'tkazib yuborishning ehtimoliy ssenariylarini o'z ichiga oluvchi yagona oshkor etish standarti ("kredit pasporti")ni joriy etish lozim. Shuningdek, mazkur hujjatda ko'rsatilmagan har qanday qo'shimcha to'lovlarni undirishni qonunan taqiqlash zarur. Shunga qaramay, bu yerda ham xavflar mavjud: xususan, kreditorlar to'lovlarni uchinchi shaxslar bilan tuziladigan alohida (bilvosita) shartnomalar tarkibiga o'tkazish orqali chetlab o'tishga urinishi mumkin.

2. Qo'shimcha xizmatlarni majburiy yuklangan deb topish mezonlarini normativ darajada mustahkamlash maqsadga muvofiq. Ushbu mezonlar ruxsat etilgan qo'shimcha

xizmatlarni narx shaffofligi va adolatli shartlar tamoyillarini chetlab o'tishga qaratilgan usullardan farqlash imkonini beradi. Mazkur taqiq amalda samarali ishlashi uchun nafaqat ma'muriy jarimalar, balki qarz oluvchining mulkiy holatini tiklovchi xususiy-huquqiy oqibatlarini ham joriy etish zarur. Bunday oqibatlarga quyidagilar kirishi mumkin: majburiy yuklangan servisni to'lash majburiyatiga oid shartlarning tegishli qismini haqiqiy emas deb topish (yoki qo'llamaslik); to'langan summani asossiz boyish qoidalari-ga ko'ra qaytarish (chunki qarz oluvchi xizmatni sotib olishga erkin iroda bildirmagan, kreditor yoki uning kafillangan shaxsi esa tegishli huquqiy asos bo'lmagan holda foyda olgan); "majburiy yuklanganlik" prezumpsiyasi (agar kreditor alohida, aniq va erkin rozilik bo'lganini isbotlay olmasa, xizmat majburiy yuklangan deb hisoblanadi). Bu isbotlash yukini axborot va sotuv interfeysini nazorat qiladigan tomonga ko'chiradi. "Alohida ifodalangan rozilik" tushunchasi sahifa ostidagi oddiy belgi bilan cheklanmasligi lozim. Minimal belgilar quyidagilar bo'lishi kerak: kreditga rozilikdan ajratilgan alohida blok; xizmat narxining va undan voz kechgan holda ham kredit olish mumkinligining aniq ko'rsatilishi (xizratsiz shartlar ko'rsatilgan holda); oldindan qayd etilishi lozim bo'lgan belgilarning yo'qligi; chalg'ituvchi iboralarni taqiqlash ("majburiy xizmat", "zarur tekshiruv", agar aslida bunday bo'lmasa).

3. Mikroredit (mikroqarz)ning yuqori qiymati neustoykalar va prolongatsiyalar bilan qo'shilganda qarshi talablarning ekvivalent emasligiga olib kelishi mumkin. Natijada kichik summa bir necha baravar ortib boradigan majburiyatga aylanadi. Bu endi shunchaki narx erkinligi masalasi emas, balki ommaviy shartnomalarda ommaviy tartib (*public order*) va zaif tomonga haddan tashqari yuk yuklashning yo'l qo'yilmasligi masalasidir. Shu munosabat bilan umumiy qiymat cheklovchisini (*total cost cap*) yashirin to'lovlarni taqiqlash bilan birga joriy etish zarur, deb

hisoblaymiz. Huquqiy jihatdan foizning o'zini emas, balki hisoblangan to'lovlarning maksimal umumiy summasini (foizlar, komissiyalar, jarimalar), ya'ni qarz oluvchining maksimal zarari chegarasini cheklash to'g'riroq bo'ladi. Bunda istisnolar, maksimal rejimlari hamda kreditga kirish imkoniyatiga ta'sirini majburiy baholash nazarda tutilishi lozim.

4. Raqamli qo'shilish shartnomalarida qarz oluvchi shartlarni odatda to'liq hajmda qabul qiladi. Bu ko'pincha kichik ekranda va qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi. Bu esa iqtisodiy jihatdan muhim shartlar (jarimalar, prolongatsiya, komissiyalar) noaniq bo'lib qolishi, demak, rozilikning ham formal tus olishi riskini kuchaytiradi. Muammoni hal etish uchun asosiy shartlarni (summa, muddat, to'liq qiymat, to'lov jadvali, jarimalar, muddatidan oldin so'ndirish, prolongatsiya shartlari) standartlashtirish va qarz oluvchiga tushunarli tildan foydalanishni majburiy qilish zarur. Bundan tashqari, raqamli interfeyslarda asosiy parametrlar (to'liq qiymat, jarimalar, prolongatsiya) iste'molchi tomonidan to'liq tushunilganini tekshiruvchi majburiy nazorat savollari yoki qisqa tasdiqlash bosqichlarini joriy etish zarur deb hisoblanadi. Shu bilan birga, kreditning haqiqiy qiymatini "yashiradigan" yoki chalg'ituvchi interfeys amaliyotlarini qonunan taqiqlash lozim. Mazkur choralarning qo'llanishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar sonini kamaytirishga hamda mijoz roziligining sifat va huquqiy asosini oshirishga xizmat qiladi.

5. Agarda axborotni oshkor qilmaganlik uchun faqat ma'muriy jarimalar qo'llansa, kreditorda bunday amaliyotni davom ettirishga bo'lgan rag'bat saqlanib qoladi. Chunki jarima miqdori kam va oldindan prognoz qilinadigan bo'lishi, mavhumlikdan olinadigan iqtisodiy foyda esa jarimadan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunday huquqbuzarliklar uchun qarz oluvchining huquqlarini bevosita tiklovchi xususiy-huquqiy oqibatlarni belgilash zarur. Bunday oqibatlar sirasiga qarz oluvchining qayta hisob-kitob

qilishni talab etish huquqi, to'lanishi lozim bo'lgan summalar miqdorini kamaytirish, isbotlash yukini qayta taqsimlash kiradi (bunda axborotning to'liq va o'z vaqtida oshkor etilganini kreditor isbotlab berishi lozim). Mazkur yondashuv sudlar zimmasiga tushadigan yuklamani oshirishi mumkinligini inobatga olib, sudgacha bo'lgan tartib-taomillarni va moliyaviy ombudsman institutini rivojlantirish ham talab etiladi.

6. Qarzdorlikni undirish – kreditorning qonuniy huquqi bo'lsa-da, u halollik tamoyili va huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlash prinsiplari bilan cheklanadi. Mikro-segmentda jarayonlarning ommaviyligi, avtomatlashtirilganligi va qarzdorlarning ijtimoiy zaifligi sababli tazyiq o'tkazish xavfi ortadi. Shu bois undirish jarayonidagi kommunikatsiya standartlarini (aloqa vaqti, chalg'ituvchi tahdidlarni taqiqlash), muayyan sharoitlarda restrukturizatsiya taklif qilish majburiyatini hamda o'zaro muloqotlarni hujjatlashtirish talabini qat'iy belgilash zarur. Bunday choralar ijtimoiy ziddiyatni yumshatadi va nizolarni keskinlashtirish (eskalatsiya) orqali mablag'larni yig'ish samaradorligini oshiradi. Biroq insofsiz qarz oluvchilar bunday mexanizmlardan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanmasliklari uchun aniq mezonlar va nazorat tizimini joriy etish lozim.

7. Avtomatlashtirilgan qarorlarning izohlanmasligi va qo'llanadigan ma'lumotlar ko'laminig asossiz kengligi protsessual adolatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda qarz oluvchi qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, diskriminatsiya (kamsitish) xavfi esa "proksi-belgilar" (bilvosita ko'rsatkichlar) orqali yuzaga keladi. Shu bois, avtomatlashtirilgan qarorlarga nisbatan minimal tushuntirish berish talablarini hamda ma'lumotlarni minimallashtirish prinsiplarini qonunchilikda mustahkamlash zarur: masalan, qarz oluvchining rad javobi berilishiga sabab bo'lgan asosiy omillar bo'yicha tushunarli izoh olish huquqini ta'minlash, aniq huquqiy asos mav-

jud bo'lmagan "sezgir" ma'lumotlardan foydalanishni taqiqlash lozim. Mazkur choralar tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni huquqiy tartibda bahslashish imkoniyatini yaratadi.

8. Regulyator (nazorat qiluvchi organ) qonunbuzarlikni aniqlashi mumkin, biroq bu muayyan qarz oluvchiga avtomatik ravishda kompensatsiya to'lanishini anglatmaydi. Natijada ommaviy va xususiy huquqiy himoya vositalari o'rtasida uzilish yuzaga keladi: ommaviy sanksiya huquqbuzarni "jazolaydi", biroq jabrlanuvchining huquqlarini "tiklamaydi". Shu bois, regulyator tomonidan aniqlangan (axborotni oshkor etmaslik yoki qo'shimcha xizmatlarni majburiy yuklash kabi) huquqbuzarliklar fuqarolik jarayonida prezumpsiyalarni (masalan, shartnoma shartlarining insofsizligi prezumpsiyasini) keltirib chiqarishi va individual huquqiy himoyani yengillashtirishi lozim.

Taklif etilayotgan choralar majmuasi regulyator zimmasiga tushadigan yuklamaning ortishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq modellashtirilgan yondashuv shuni ko'rsatadiki, mazkur takliflar bevosita tizimli xavf-xatarlar mavjud bo'lgan "tugun nuqtalariga" qaratilgan hamda huquqiy bo'shliqlardan foydalanish imkoniyatini bartaraf etishga yo'naltirilgan. Oqilona proporsionallik (ayniqsa, mas'uliyatli kreditlash tamoyillari) asosida amalga oshiriladigan islohotlar moliyaviy ochiqlikka zarar yetkazmagan holda, tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ortiqcha qarzdorlikning ijtimoiy xarajatlarini kamaytiradi.

O'zbekiston uchun nobank sektor ustidan nazoratni axborotni oshkor etish talablari buzilgani uchun xususiy-huquqiy javobgarlikni kuchaytirish hamda suiiste'molliklarni taqiqlash bilan uyg'unlashtiruvchi "gibrid model" optimal hisoblanadi. Aynan shunday kompleks yondashuv moliyaviy xizmatlarning tadbirkorlik tabiatini ularning ijtimoiy-inklyuziv funksiyasi bilan muvozanatlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

"Mikrokreditlashni tartibga solish modeli" kreditor, qarz oluvchi va davlat o'rtasidagi risklarni taqsimlovchi "tugunlar tizimi" sifatida talqin qilinishi lozim. Huquqiy normalarni ularning oqibatlarini tahlilisiz oddiy sanab o'tish regulyativ mantiqni (ratsionallikni) ochib berishga xizmat qilmaydi. Mikrokreditlashning ikkiyoqlama tabiatini (tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy inklyuziya vositasi) hisobga olgan holda, shartnoma erkinligining o'zagini saqlab qolib, vijdonlilik va shaffoflikning imperativ kafolatlarini kuchaytirish doktrinal jihatdan to'la asoslantirilgan.

Qiyosiy matritsa bozorga kirish, shartnomaviy standartlar, to'liq qiymatni oshkor etish, narxlarni cheklash, mas'uliyatli kreditlash, qarzlarni undirish jarayoni, raqamlashtirish va nazorat kabi unsurlarni qamrab olishi lozim. Aynan mana shu "tugunlar" huquqiy rejimning samaradorligini belgilab beruvchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

Yevropa modeli standartlashtirish jarayonlarini hamda "axborotni oshkor etish va to'lov qobiliyatini baholash" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu model kreditning haddan tashqari yuqori qiymatiga qarshi choralarini, jumladan, narx cheklovlarini maqbul himoya vositasi sifatida e'tirof etadi.

Britaniya yondashuvi xulq-atvor nazorati, to'lov qobiliyatini sinchkovlik bilan baholash hamda qarz oluvchi ko'rishini mumkin bo'lgan maksimal zararni cheklovchi narx mexanizmlari uyg'unligi samaradorlik berishini isbotlamogda.

Amerika tizimi esa mahsulot risklari va narx cheklovlarining fragmentatsiyalashgan (parchalangan) sharoitida axborotni oshkor etish paradigmasining o'ziga xos chegaralarini ko'rsatib beradi: ya'ni shaffoflik zaruriy shart bo'lsa-da, u qarz spiralining oldini olish uchun har doim ham yetarli emas.

O'zbekiston uchun asosiy ustuvor yo'nalish – nobank sektorini institutsionalashtirish hamda iste'molchilar huquqlarini

himoya qilishni mikromoliya siyosatining uzviy elementi sifatida e'tirof etishdir. Shu bilan birga, axborotni oshkor etish va mas'uliyatli kreditlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Xususan, kreditning to'liq qiymatini oshkor etishning yagona standartini joriy etish, yashirin to'lovlarni taqiqlash hamda ushbu qoidalarni bog'langan xizmatlar cheklolari va huquqbuzarliklarning fuqarolik-huquqiy oqibatlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Proporsional mas'uliyatli kreditlash modeli ortiqcha qarzdorlikni jilovlash bilan birga, mikrokreditlar qiymatining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Mazkur modelning mazmun-mohiyati kredit summasi va muddatiga qarab tabaqalashgan bo'lishi lozim.

Raqamli mikrokreditlash sohasida skoring qarorlarining asoslantirilishi va ma'lumotlarni minimallashtirish bo'yicha minimal talablarni normativ darajada mustahkamlash zarur. Aks holda, adolat tamoyili amaliy protsessual ifodasini topa olmaydi. Ommaviy nazorat va xususiy-huquqiy himoya o'rtasidagi muvozanat regulyator ko'rsatmalarini fuqarolik nizolarida prezumpsiyalar bilan bog'lash hamda isbotlash yukini qayta taqsimlash orqali ta'minlanadi.

Islohotlar yaxlit paket ko'rinishida loyihalani shart: yashirin to'lovlar taqiqi va axborotni oshkor etish mexanizmlarisiz joriy etilgan narx cheklolari kutilgan samarani bermaydi, aksincha, qonunni chetlab o'tishga qaratilgan turli sxemalarni rag'batlantirishi mumkin.

REFERENCES

1. Ahunov, M. (2018). *Financial inclusion, regulation, and literacy in Uzbekistan*. Asian Development Bank Institute. <https://www.adb.org/publications/financial-inclusion-regulation-literacy-uzbekistan>
2. Consumer Financial Protection Bureau. (2021). *Truth in Lending (Regulation Z), 12 CFR Part 1026*. <https://www.consumerfinance.gov/rules-policy/regulations/1026/>
3. Council of Europe. (1981). *Convention for the protection of individuals with regard to automatic processing of personal data (European Treaty Series No. 108)*. [https://rm.coe.int/1680078b37#:~:text=The%20purpose%20of%20this%20Convention,\(%22data%20protection%22\).](https://rm.coe.int/1680078b37#:~:text=The%20purpose%20of%20this%20Convention,(%22data%20protection%22).)
4. De Mesquita Gomes, S. J., Aute, K., Boeddu, G. L., & Chien, J. (2022). *An introduction to developing a risk-based approach to financial consumer protection supervision: Guidance note*. World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/099830012152234435>
5. European Banking Authority. (2025). *EBA Consumer trends report 2024/25 (Report No. EBA/REP/2025/08)*. <https://www.eba.europa.eu/sites/default/files/2025-03/514b651f-091b-42d3-b738-1fae79264044/Consumer%20Trends%20Report%202024-2025.pdf>
6. European Parliament and Council of the European Union. (2008, April 23). Directive 2008/48/EC on credit agreements for consumers and repealing Council Directive 87/102/EEC. *Official Journal of the European Union*, L 133/66. <http://data.europa.eu/eli/dir/2008/48/oj>
7. European Parliament and Council of the European Union. (2023, October 18). Directive (EU) 2023/2225 on credit agreements for consumers and repealing Directive 2008/48/EC. *Official Journal of the European Union*, L 2023/2225. <http://data.europa.eu/eli/dir/2023/2225/oj>

8. Federal Trade Commission. (2010). *Fair debt collection practices act*. <https://www.ftc.gov/legal-library/browse/rules/fair-debt-collection-practices-act-text>
9. Financial Conduct Authority. (2014, November 11). *PS14/16: Detailed rules for the price cap on high-cost short-term credit*. Policy Statement. <https://www.fca.org.uk/publication/policy/ps14-16.pdf>
10. Howells, G., Ramsay, I., Wilhelmsson, T., & Kraft, D. (Eds.). (2010). *Handbook of research on international consumer law*. Edward Elgar Publ. <https://doi.org/10.4337/9781849806312>
11. International Organization for Standardization & International Electrotechnical Commission. (2022). *Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements (ISO/IEC Standard No. 27001:2022)*. <https://www.iso.org/obp/ui/en/#iso:std:iso-iec:27001:ed-3:v1:en>
12. Lefevre, A.-F., & Chapman, M. (2017). *Behavioural economics and financial consumer protection*. OECD Publ. <https://dx.doi.org/10.1787/0c8685b2-en>
13. Lim, C. H., Columba, F., Costa, A., Kongsamut, P., Otani, A., Saiyid, M., Wezel, T., & Wu, X. (2011). *Macroprudential policy: What instruments and how to use them? (Working Paper No. 11/238)*. International Monetary Fund. https://www.imf.org/-/media/websites/imf/imported-full-text-pdf/external/pubs/ft/wp/2011/_wp11238.pdf
14. Mijatovic, M. D., & Gongeta, S. (2014). Consumer credit in European Union. *European Scientific Journal*, 1(Special edition), 419–426.
15. North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.
16. OECD. (2019). *Artificial intelligence in society*. OECD Publ. <https://doi.org/10.1787/eedfee77-en>
17. Rafe, M., & McKee, K. (2017). *Consumer protection in digital credit (Focus Note No. 108)*. CGAP. <https://www.cgap.org/sites/default/files/Focus-Note-Consumer-Protection-in-digital-Credit-Aug-2017.pdf>
18. Republic of Uzbekistan. (1996a). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/111189>
19. Republic of Uzbekistan. (1996b). *Law of the Republic of Uzbekistan “On consumer rights protection”*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/25567>
20. Republic of Uzbekistan. (2022). *Law of the Republic of Uzbekistan “On non-bank credit organizations and microfinance activities”*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6906701>
21. Truth in Lending Act of 1968, 15 U.S.C. § 1601 et seq. (1968). <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/15/chapter-41>
22. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). *Digital economy report 2024: Shaping a sustainable and inclusive digital future*. United Nations. <https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024>
23. World Bank. (2013). *Responsible lending: Overview of regulatory tools*. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/ae59f517-c78c-5fb3-b450-f3bcae3ab252/content>
24. World Bank. (2019). *Global financial development report 2019/2020: Bank regulation and supervision a decade after the global financial crisis. Overview*. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/38b580e9-92f7-519c-8623-a7dbc4679ce8/content>
25. Zimmermann, R. (1996). *The law of obligations: Roman foundations of the civilian tradition*. Oxford University Press.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 2-SON

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.